JORJ ORUELL VA ABDULHAMID CHO‘LPON ASARLARIDA ERKINLIK BADIIY IFODASINING QIYOSIY TAHLILI

Yusupova Mohigul Rustam qizi

Oriental universiteti, “Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Jorj Oruellning “1984” distopiyasi va Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani misolida erkinlik badiiy ifodasining o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida atroflicha tahlil etiladi. Qahramonlar tizimining tipologik o‘xshashligi va farqlari, til va xotira muammosi, kuzatuv mexanizmlari, inqilobchilar g‘oyasining badiiy talqini, ramzlar tizimi va fojiali yakun nuqtai nazaridan ikki romanning mushtarak va o‘ziga xos badiiy xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot G‘arb va Sharq adabiy-falsafiy an’analarining erkinlik va totalitarizm masalasidagi mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: erkinlik, totalitarizm, qiyosiy tahlil, distopiya, psixologik roman, Newspeak, panoptikon, ramzlar tizimi, qahramon tipologiyasi, XX asr adabiyoti.

Аннотация. В данной статье на основе сравнительно-типологического подхода подробно анализируются сходства и различия художественного изображения свободы в антиутопии Джорджа Оруэлла “1984” и романе Абдулхамида Чулпана «Ночь и день». Рассматриваются типологическое сходство и различия системы персонажей, проблемы языка и памяти, механизмы надзора, художественная интерпретация революционных идей, система символов и трагические развязки двух романов. Исследование помогает выявить общие и отличительные черты западной и восточной литературно-философских традиций в решении проблемы свободы и тоталитаризма.

Ключевые слова: свобода, тоталитаризм, сравнительный анализ, дистопия, психологический роман, новояз, паноптикум, система символов, типология персонажей, литература XX века.

Annotation. This article provides a detailed comparative-typological analysis of the similarities and differences in the artistic expression of freedom in George Orwell's dystopia “1984” and Abdulhamid Cho‘lpon’s novel “Night and Day”. The typological similarities and differences in the character systems, the problems of language and memory, surveillance mechanisms, the artistic interpretation of revolutionary ideas, the symbol system and tragic outcomes of the two novels are examined. The research helps to identify the common and distinctive features of Western and Eastern literary-philosophical traditions in addressing the issues of freedom and totalitarianism.

Key words: freedom, totalitarianism, comparative analysis, dystopia, psychological novel, Newspeak, panopticon, symbol system, character typology, 20th century literature.

Kirish. XX asr jahon adabiyoti tarixida shaxs erkinligi muammosi eng keskin va dramatik tarzda ko‘tarilgan davr edi. Ikki jahon urushi, totalitar tuzumlarning vujudga kelishi, mafkuraviy manipulyatsiya texnologiyalarining shakllanishi, mustamlakachilik va qatag‘on – barchasi adiblarni inson ozodligi haqida fundamental savollarga olib keldi. Aynan shu davrning eng yorqin badiiy javoblaridan ikkitasi – ingliz yozuvchisi Jorj Oruellning “1984” distopiyasi va o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” psixologik romani.

Bu ikki roman bir-biridan o‘n besh yil oraliqda yozilgan bo‘lib, mutlaqo turli madaniy va siyosiy ruhda dunyoga kelgan. Cho‘lpon o‘zining asarini sovet rejimining ichida, barcha nigohlar unga qaratilgan paytda yozdi va bundan to‘rt yil o‘tib otib o‘ldirildi. Oruell esa Britaniyada yashagan bo‘lsa-da, sovet va natsist totalitarizmining ichki mexanizmlarini Ispaniya fuqarolar urushidagi shaxsiy tajribasi orqali kechirgan va “1984”ni og‘ir sil kasalligi sharoitida yozdi. Demak, bu ikki yozuvchi bir-birini hech qachon tanimagan, asarlarini o‘qishmagan. Shunga qaramay, ularning asarlari bir xil falsafiy nuqtaga inson erkinligi muqaddas va uni yo‘qotish fojia degan xulosaga keladi. Aynan shu tipologik mushtaraklik ikkala asarni qiyosiy tadqiq qilishni ilmiy jihatdan zarur va qiziqarli qiladi.

Ikki asarni yaqinroq tahlil qilganda, eng birinchi diqqatga sazovor o‘xshashlik bu bosh qahramonlarning psixologik xususiyatlaridir. Uinston Smit Okeaniyaning oddiy fuqarosi sifatida tasvirlangan – 39 yoshli, sog‘ligi yomon, ichkilikka berilgan oddiy odam. Lekin uning ichida partiya rejimiga qarshi norozilik yashaydi. Amerikalik adabiyotshunos Jon Rodden o‘zining “The Politics of Literary Reputation” kitobida shunday yozadi: “Uinston Smit – XX asrning eng ramziy adabiy qahramonlaridan biri. U totalitar tuzum sharoitida insoniyat qadr-qiymatini saqlab qolishga urinayotgan har bir kishining timsolidir. Uning fojiasi uning mag‘lubiyati emas, balki o‘ziga xiyonat qilishga majburlanishidir”.

Zebi obrazi ham yuzaki qaraganda oddiy o‘zbek qishloq qizi. U paranji ostida yuradi, otasining qo‘l ostida, an’analarning bo‘g‘iq quchog‘ida o‘sgan. Lekin uning ichida ham xuddi Uinston kabi erkin sevgiga, hayotning quvonchiga, samimiy do‘stlikka tashnalik bor. Akademik Umarali Normatov o‘zining “Cho‘lpon va o‘zbek romani” tadqiqotida ta'kidlaganidek: “Kecha va kunduz o‘zbek romanchiligida psixologik realizmning birinchi yorqin namunasi bo‘ldi. Cho‘lpon obrazlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy kechinmalarini misli ko‘rilmagan chuqurlik bilan ochib bergan”. Dilmurod Quronov “Cho‘lpon nasri poetikasi” kitobida esa Zebi obraziga munosabat bildirib shunday yozadi: “Cho‘lpon ayol psixologiyasini ochishda sharq adabiyotidagi eng buyuk yutuqlardan birini qo‘lga kiritdi. U Zebi obrazi orqali butun bir madaniyatning, butun bir epoxaning ayoliga xos ichki dunyoni uning urinishlari, qo‘rquvlari, orzulari va halokati orqali ko‘rsatib bera oldi”.

Eng qiziq parallel shundaki, Cho‘lponning “Qafasning darichasi ochildi!” metaforasi bilan Oruellning Uinston Smit “YO‘QOLSIN KATTA OG‘A” yozishga qaror qilishi ikkalasi ham qafasdan ozodlikka birinchi qadam sifatida talqin etiladi. Biroq har ikkalasida ham qafas darichasi ochilgandek tuyulsa-da yopiq qoladi. Cho‘lponning achchiq xulosasi: erkinlik tashqaridan kelmaydi, uni anglash uchun ichki tayyorgarlik kerak. Bu g‘oyani professor Dilmurod Quronov “Cho‘lponning eng buyuk falsafiy kashfiyoti” deb baholab, shunday yozadi: “Cho‘lpon bu lavhada inson ozodligining murakkab dialektikasini ochib beradi. Tashqi erkinlik ichki erkinliksiz hech narsa emasligi, aksincha, ichki ozodlikka ega odam tashqi qullik holatida ham ozodligini saqlay olishi mumkin”.

Til muammosi har ikki asarning ham asosiy mavzularidan biridir, lekin har ikki adib bu masalaga tamoman qarama-qarshi tomondan yondashadi. Oruell “1984”da “Newspeak” (*Yangi til*) deb atalgan tushunchani yaratgan. Bu Okeaniya partiyasi tomonidan o‘ylab topilgan, sun’iy ravishda yaratilgan til bo‘lib, uning maqsadi “erkinlik” degan tushunchani umuman lug‘atdan yo'qotishdir. Romanda Saym obrazi shunday tushuntiradi: “Bizning maqsadimiz – fikrlash bo‘shlig‘ini shu darajada toraytirish kerakki, oxir-oqibatda fikr-jinoyat qilish jismonan mumkin bo‘lmasin”. Britaniyalik tilshunos Roy Harris ta’kidlaganidek: “Oruell tilning shaxs erkinligi uchun qanchalik muhim ekanligini boshqa hech qanday yozuvchidek aniq ko‘rsatib bermagan. Til yo‘qolgan joyda fikr ham yo‘qoladi».

Cho‘lponning til muammosiga qarashi boshqa yo‘nalishda, lekin bir xil chuqurlikda aks etadi. «Kecha va kunduz»da Cho‘lpon romanda til muammosini ko‘rsatish orqali jadidchilikning bosh g‘oyasini ilgari suradi: millat yashab qolishi uchun o‘z ona tilini isloh qilishi, ma’rifatli bo‘lishi va dunyo tillarini (rus, ovrupo tillarini) o‘rganishi shart. Aks holda, millat Zebi kabi tilsiz va huquqsiz qurbonga aylanadi.Bu sovet sharoitida milliy adabiy tilni va o‘zlikni saqlab qolish urinishi edi. Cho‘lpon Shekspir, Pushkin, Gorkiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali ham tilning qudratini ko‘rsatdi. Akademik Naim Karimov bu masalada shunday yozadi: “Cho‘lpon o‘zbek tilining shoiri edi. U bilar edi: agar til yo‘qolsa, millat yo‘qoladi. Agar millat yo‘qolsa, ozodlik haqida gapirish ham mumkin emas. Shuning uchun u har bir asarini milliy tilning qal’asi sifatida qurardi”.

Ushbu ikki qarash bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan ko‘zguni eslatadi. Oruellga ko‘ra mustabid rejim til imkoniyatlarini cheklash orqali inson hurligini bo‘g‘ib qo‘yadi. Cho‘lpon esa qahramonlar qismati orqali shunday signal beradi: millat o‘z ona tilini huquq, siyosat va ilm darajasiga ko‘tarmas ekan, Akbarali mingboshi kabi rus amaldorlari poyida xor bo‘ladi, Zebi kabi sudda o‘zini himoya qila olmay ruschada yozilgan hukm bilan surgun qilinadi. Millat erkinligi – uning o‘z tilida o‘z huquqini talab qila olishidadir.. Stefan Ingle “George Orwell: A Political Life” asarida shunday yozadi: “Oruell uchun til haqiqatning so‘nggi qal’asidir. Totalitarizm esa tilni tizimli ravishda o‘zgartirish orqali o‘z yolg‘onlarini rasmiy va majburiy holga keltiradi”. Har ikki adib mohiyatan bir xil falsafiy xulosaga keladi: til erkin bo‘lsa inson ham erkindir, til kishanlansa shaxs ham qullikka mahkumdir.

“1984”da kuzatuv texnologik, mexanik shaklda namoyon bo‘ladi: tele-ekranlar va mikrofonlar uy, ishxona, ko‘cha hamma joyda o‘rnatilgan; Fikr politsiyasining yashirin agentlari qo‘shnilar, do‘stlar, hatto bolalar ichidan ishlaydi. “KATTA OG‘A SENI KUZATIB TURIBTI” shiori fuqaro hech qachon yolg‘iz qolmasligini bildiradi. Mishel Fukoning “Panoptikon” konsepsiyasi bu yerda aynan amalga oshirilgan: odam doimo kuzatilayotganini sezib, o‘zi o‘zini nazorat qila boshlaydi. Bu holat Uinston Smitning kundalik hayotida yaqqol ko‘rinadi: u uyida ham, ishda ham, hatto uyqusida ham erkin emas.

“Kecha va kunduz”da kuzatuv boshqacha shaklda: bu an’anaviy, jamoaviy, madaniy nazorat. Zebining har bir qadami qo‘shnilar, qarindoshlar, mahalla, oila, dindorlar tomonidan kuzatib turiladi. Jon Rodden bu muqoyasaga munosabat bildirib shunday yozadi: “Katta Aka ham yangi turdagi diktator, ham juda eski turdagi qabila boshlig‘i. U tele-ekran bilan kuzatadi, lekin uning kuchi odamlarning bir-birini sotishidan keladi”. Demak, kuzatuv shakli turlicha bo‘lsa-da, ikkalasining maqsadi bir: shaxsni o‘z-o‘zini nazorat qiladigan holga keltirish. Inqilobchilar g‘oyasining talqinida ikkala asarda ham qiziqarli tipologik o‘xshashlik kuzatiladi. “Kecha va Kunduz”da Miryoqubning suhbatdoshi inqilobchilar haqida: “Podshoni ham hayda, amaldorni ham hayda... tortib olib xalqqa ber, deydi” – degan jozibador ta’rif beradi. Biroq Cho‘lpon bu va’dalarning aslida yangi bir totalitar diktaturaga zamin hozirlayotganini yashirin ironiya orqali ko‘rsatadi. Xuddi shunday, Oruellning “Hayvonlar fermasi”da inqilobchilarning “Barcha hayvonlar tengdir” shiori keyinchalik “Ammo ba’zi hayvonlar boshqalardan ko‘ra ko‘proq tengdir” degan aqidaga aylanadi. Bu tipologik o‘xshashlik ikki adibning totalitarizm tabiati haqidagi mushtarak falsafiy xulosasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ikki romanning fojiali yakuni o‘rtasidagi farq XX asr G‘arb va Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlarini yorqin namoyon etadi. “1984”ning so‘nggi satrlari “U Katta Akani sevardi” – mustabid tuzum inson tanasidangina emas, uning ruhidan ham to‘liq g‘alaba qozonishini ifodalovchi eng dahshatli fojiaviy xulosadir. Britaniyalik faylasuf Richard Rorty ta’kidlaganidek: “Oruell uchun erkinlikning oxirgi qal‘asi bu boshqa insonga sodiq qola

olishdir. Xona 101 sahnasi – bu qal’aning ham buzilishini ko‘rsatadi. Oruell shu narsani aytadi: totalitar tuzumlar har birimizga shu narsani qila olishiga qodir”.

Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarida Zebining yakuni fizik halokat, lekin axloqiy g‘alaba bilan tugaydi. U surgun qilinadi, ammo o‘zining ichki pokligini, insoniy shaxsiyatini saqlab qoladi. Bu farqni Jon Rodden shunday izohlaydi: “Oruell G‘arb yozuvchisi sifatida shaxsning sindirilishini eng buyuk fojia deb biladi. Sharq adabiy an’anasida esa fizik halokat hech vaqt to‘liq mag‘lubiyat emas, agar inson o‘zining ruhini, qalbini, e’tiqodini saqlab qolsa”. Bu jihat tasavvuf tafakkurining chuqur qatlamlaridan keladi: shaxsning ruhi uning tanasidan muhimroq. Shuningdek, tilmochning rus tilida “Bezobraziye!” deb bosh chayqashi – adolat maskanlarining ma’naviy vayronaligini ko‘rsatuvchi eng o‘tkir ramziy belgisidir.

Ramzlar tizimini qiyoslashda ham muhim farqlar ko‘zga tashlanadi. “1984”da eng kuchli ramzlardan biri shisha qog‘oz bostirgich – eski davrdan qolgan, ichida koral parchasi bo‘lgan shaffof shisha. Bu partiya tomonidan o‘chirilmagan o‘tmishning ramzidir. “Kecha va Kunduz”da esa ramz tizimi tabiat va folklor an’analaridan chiqadi: paranji qulchilik ramzi; qush ozodlik ramzi; bahor uyg‘onish ramzi. Dilmurod Quronov yozadi: “Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida ramz va majoz tilini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Uning ramzlari qadimiy an’analar bilan bog‘liq, lekin XX asrning yangi g‘oyalarini ifoda etishga qodir”.

Miryoqub obrazining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Uinston Smit kabi dastlab tizimning xizmatkori bo‘lgan Miryoqub, yakunda ongli ravishda o‘z ma’naviy tanazzulini anglab yetadi va jadidchilik g‘oyalari tomon qadam tashlaydi. Cho‘lpon Miryoqub orqali qora “Kecha” ichida ham inson o‘z vijdonini uyg‘otib, erkinlik sari intilishga qodir ekanligini ko‘rsatadi. Bu jihat Oruell asaridan tubdan farq qiladi: Uinston oxir-oqibat to‘liq sindiriladi, Miryoqub esa ma’naviy o‘zgarish yo‘lida davom etadi.

Xulosa. Jorj Oruell va Abdulhamid Cho‘lpon asarlarining qiyosiy tahlili quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Uinston Smit va Zebi obrazlari o‘xshash psixologik xususiyatlarga ega bo‘lsalar-da, ikki qahramonning yakuni G‘arb va Sharq adabiy an’analarining tubdan farqli dunyoqarashini aks ettiradi. Til muammosi ikkala asarning ham markaziy mavzusi bo‘lib, lekin Oruell tilni qashshoqlashtirish, Cho‘lpon esa tilni boyitish uni rivojlantirish orqali erkinlik uchun kurashni tasvirlaydi; ikkalasi bir xil falsafiy xulosaga keladi: til erkin bo‘lsa inson ozod, til cheklansa inson quldir. Kuzatuv mexanizmlari “1984”da texnologik, “Kecha va Kunduz”da an’anaviy-madaniy shaklda namoyon bo‘ladi, biroq ikkalasida ham natija bir xil – shaxs erkinligining yo‘q qilinishi. Inqilobchilar g‘oyasining ikki asardagi talqini o‘xshash tipologik model ko‘rsatadi: jozibador va’dalar aslida yangi totalitarizmga zamin hozirlaydi. Ikki roman birgalikda erkinlik va totalitarizm tabiatining eng chuqur va universal badiiy konsepsiyasini vujudga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Cho‘lpon A. Kecha va kunduz / mas’ul muharrir N. Karimov. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 384 b.
2. Orwell G. Nineteen Eighty-Four. – London: Secker & Warburg, 1949. – 328 p.
3. Orwell G. Animal Farm. – London: Secker & Warburg, 1945. – 112 p.
4. Karimov N. Cho‘lpon. – Toshkent: Fan, 1991. – 256 b.
5. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 216 b.
6. Normatov U. Cho‘lpon va o‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 2004. – 192 b.
7. Karimov B. O'zbek romani tarixidan. – Toshkent: Fan, 2007. – 248 b.
8. Rodden J. The Politics of Literary Reputation. – New York: Oxford University Press, 1989. – 412 p.

9. Rodden J. George Orwell: Into the Twenty-First Century. – Boulder: Paradigm, 2004. – 320 p.
10. Rorty R. Contingency, Irony, and Solidarity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 201 p.
11. Ingle S. George Orwell: A Political Life. – Manchester: Manchester University Press, 1993. – 198 p.
12. Harris R. The Language Myth. – London: Duckworth, 1981. – 183 p.
13. Crick B. George Orwell: A Life. – London: Secker & Warburg, 1980. – 473 p.
14. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 368 p.
15. Foucault M. Surveiller et punir. – Paris: Gallimard, 1975. – 328 p.